

XIVA XONLIGIDA SAVDO ALOQALARIDA TEMIR YO‘LLARINING QURILISHINING AHAMIYATI (XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA)

Raximberganov Jo‘rabek Otanazar o‘g‘li
Ma‘mun Universiteti Tarix kafedrası o‘qituvchisi
rakhimberganovjorabek@gmail.com

Annotatsiya. Davlatlar o‘rtasidagi savdo-sotiq ishlarining rivojlanishi temir yo‘llarning qurilishi bilan yanada taraqqiy qilgan. Buni Chor Rossiyasi misolida ko‘rishimiz mumkin. Xiva xonligi Chor Rossiyasi tamonidan bosib olinishi bilan Temir yo‘llar qurish ishini jadallashtirgan. Rossiyadan tovarlar kelishi va Xiva xonligidan xom-ashyolarning arzon tashib keltirishi bu yerga yetib kelgan poyezdlar bilan bog‘liqdir. Temir yo‘llar nafaqat savdo ishlari balki harbiylarni O‘rta Osiyoga tezkor suratda tashib keltirish vazifasini o‘taydi. Bu borada ushbu maqoladi kengroq ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Chorjo‘y temir yo‘li, Kolosovskiy, Zakaspiy temir yo‘li, Rossiya-Xitoy banki, Rossiya-Osiyo banki, og‘a-ini Olloqulovlar, og‘a-ini Baqqolovlar, Salimjonov, Avazboy Qurboniyozov, Samandarov, Aminov, Toshniyozov, Allaberganov, sanoatchi, mix, kerosin, neft, qalay, beda.

Аннотация. Развитию торговли между государствами способствовало строительство железных дорог. Мы можем видеть это на примере царской России. Хивинское ханство ускорило строительство железных дорог, когда оно было завоевано царской Россией. С прибывающими сюда поездами связаны прибытие товаров из России и дешевая перевозка сырья из Хивинского ханства. Железные дороги служат не только торговле, но и задаче быстрой переброски военных в Среднюю Азию. По этому поводу более подробная информация приведена в данной статье.

Ключевые слова: Чорджойская железная дорога, Колосовский, Закаспийская железная дорога, Российско-Китайский банк, Россия-Азиатский банк, братья Оллокуловы, братья Бакколовы, Салимжонов, Авазбой Гурбанизов, Самандаров, Аминов, Тошниёзов, Аллаберганов, промышленник, гвозди, керосин, нефть, олово, люцерна.

Abstract. The development of trade between the states was further advanced with the construction of railways. We can see this in the case of Tsarist Russia. The Khanate of Khiva accelerated the construction of railways when it was conquered by Tsarist Russia. The arrival of goods from Russia and the cheap transportation of raw materials from the Khiva Khanate are connected with the trains arriving here. Railways serve not only trade, but also the task of quickly transporting the military to Central Asia. In this regard, more detailed information is given in this article.

Key words: Chorjoi railway, Kolosovsky, Transcaspian railway, Russia-China Bank, Russia-Asia Bank, Olloqulov brothers, Baqqolov brothers, Salimjonov, Avazboy Gurbaniozov, Samandarov, Aminov, Toshniyozov, Allaberganov, industrialist, nails, kerosene, oil, tin, alfalfa.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot ishini olib borish va muhokama qilishda mahalliy olimlar bilan, birgalikda Sharq va G‘arb olimlarining asarlaridan keng foydalanildi. Sadikov A.S, S. V. Jukovskiy, Nepesov G, Ziyoyev H, Allayeva N asarlari ilmiy taxlil qilindi. Internet ma‘lumotlari tadqiqot ishini to‘ldirish va xulosa qilishda alohida ahamiyatga ega. Arxiv materiallari asosida savdo-sotiq jarayonlari, undagi muammolar, elchilik aloqalari haqida ma‘lumotlar to‘plandi. Ogohiy, Bayoniy asarlari tadqiqot ishini mukammal bo‘lishida katta ahamiyatga ega. Muzeylarda saqlanayotgan buyumlar o‘sha davr savdo aloqalarini qay yo‘sinda tashkil qilinganligi to‘g‘risida xabar beradi.

Kirish.

XIX asr oxirlariga kelib Yevropada temir yo‘llarni qurish jadal suratlarida kechdi. Temir yo‘llar yuklarni, askarlarni, yo‘lovchilarni uzoq masofasini yaqin qiluvchi vosita. Xiva xonligida ham temir yo‘llar savdo aloqalariga asosiy ta‘sirini o‘tkazgan. Xususan Chor Rossiyasining Xiva xonligini bosib olishidan so‘ng bir necha siyosiy maqsadlarni ko‘zlagan. Arzon xom-ashyolarni tashib ketish, rus fuqarolarini ko‘chirib keltirish, paxtani markazga yetkazish Rossiyaning asosiy ko‘zlangan maqsadiga aylandi. Savdogarlarning ahvoriga nazar tashlaydigan bo‘lsak ularning maxsuloti rus mollarining oldida raqobatbardoshligini saqlay olmaydi, bu esa savdogarlarning kasodaga uchrashi, Xiva xonligining iqtisodiy inqirozga yuz tutishiga sababdir. Bu borada ilmiy tadqiqotlar xonlikning XIX asr tarixi haqida keng dalillarni keltirishadi.

Natijalar va muhokama.

Rossiya imperiyasi Xiva xonligini 1873-yilda o‘zining mustamlakasiga aylantirganidan keyin xonlikka rus savdogarlari va ishbilarmenlarining qiziqishi yanada ortib, ular xonlikka kelib darhol ish yurita boshladilar. Ruslar asosan yirikroq shaharlarda, savdoga va Amudaryoga qulayroq joylarda o‘rnashib oldilar. Masalan, ulardan Xiva qal‘asida 80 nafar, Xonqada 90, Mang‘itda 200, Ko‘hna Urganchda 100, Qo‘ng‘irotda 150, Sadbarda 300, jami bo‘lib xonlikda 1 ming 507 nafar (1910 yil statistikasiga ko‘ra) Rossiya fuqarosi istiqomat qilmoqda edi [1, b. 47]

1873 yilgi Gandimiyon shartnomasidan keyin rus savdogarlari va burjuaziyasiga ko‘plab erkinlik va vakolatlar berilishi natijasida Ivanovo-Voznesenska, Yaroslavl, Orexovo-Zueva manufakturalariga tegishli satin, krep, jun matolar ko‘plab miqdorda olib kelinadi [6, b. 124]. 1875 yilda Krasnovodsk orqali Xiva – Rossiya o‘rtasidagi savdo munosabatlari rivojlanib, karvonlarda xonlikdan Rossiyaga ipak, paxta, yigirilgan ip, qo‘y terisidan tayyorlangan po‘stin, echki yungi, choponlar, ipak matolar, quruq mevalar olib borilgan [6, b. 191-192].

T.G. Tuxtametov mustamlaka davri savdo munosabatlariga to‘xtalar ekan, uni ikkiga: 1) 1868-1895 va 2) 1895 yildan XX asr boshlariga qadar bo‘lib tadqiq qilish maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, Xiva – Rossiya savdo munosabatlari XIX asrning 90 yillari o‘rtalariga qadar intensiv mazmunga ega bo‘lgan bo‘lsa, 1895 yildan keyin o‘zaro savdo munosabatlarida yangi bosqich boshlangan [7, b. 113-114].

Xonlik iqtisodiyotida savdo katta o‘rinni egallaydi. 1873-1917 yillar davomida savdo ancha rivoj topib, u mamlakat xalq xo‘jaligi boshqa sohalarining ham jonllanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Bu davrda Xiva xonligi butun O‘rta Osiyodagidek Rossiya sanoati mahsulotlari sotiladigan daromadli bozorga aylandi. Rossiya savdogarlari va sanoatchilari Xiva bozorlariga gazlama, choy, qand, shakar, konfet, paxta ipi, kiyim tikadigan mashina, gugurt, sham, qoramurch, zanjir, achchiq tosh, bo‘lg‘or charmi, taxta, mix, kerosin, neft, qalay va har xil metall mahsulotlari keltirganlar. Xivadan esa paxta, ipakdan qilingan chopon; mol, qo‘y, tulki va qorako‘l terilari; qo‘y va tuya yungi; gilam, kigiz mahsulotlari, ro‘yon va boshqalar olib ketilgan [1, b. 211-212].

Chorjo‘y temir yo‘l barpo qilinishi va 1887-1888 yillarda Amudaryoda paroxod qatnovining ochilishi bilan xivaliklarning Buxoro va Rossiya bilan iqtisodiy aloqalari yanada kuchaydi. Shu munosabat bilan Xorazm vohasida savdo- sanoat markazi hisoblangan va Amudaryoga yaqin joylashgan Yangi Urganch shahrining mavqeyi ortdi. Urganchda pochta-telegraf bo‘limi, Rossiya-Osiyo banki bo‘limi, «Katta Yaroslav manufakturasi» kompaniyasi paxta zavodlari joylashgan. Rossiyalik amaldorlar Xiva xonligining boshqa shaharlariga nisbatan o‘zlarining mustamlakachilik siyosatini aynan Yangi Urganch orqali o‘tkazar edilar. Xo‘jaeli, Qo‘ng‘irotda va Mang‘it shaharlari o‘zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq va ruslar orasida ayirboshlash savdosi markaziga aylandi. Lekin Xorazm vohasida aloqa yo‘llarining talabga javob bermasligi savdoning rivojlanishi va xivaliklarning iqtisodiy, madaniy hayoti yuksalishiga to‘sqinlik qilmoqda edi. Mamlakat ichkarisida birdan-bir yuk tashiydigan vositalardan hisoblangan aravadan yog‘ingarchilik paytida foydalanish juda og‘ir kechardi.

Qumloq yerlarda va quruq paytlarda tuyalar bilan yuk tashish samarali bo'lgan. Shunday qilib, aloqa yo'llarining yomonligi va Xorazmning Zakaspiy temir yo'li bilan bog'lanmaganligi mamlakat xalq xo'jaligi taraqqiyotiga og'ir ta'sir qilmoqda edi.

1873 yilda Xiva sanoat mollarining Rossiyaga eksporti 30 % ni tashkil etgan bo'lsa, 70 -yillar oxiriga kelib 20 %, 80-yillar oxiriga kelib 9 % va 90-yillarda atigi 5 % ga pasayib ketadi [8, b. 129].

Xorazmning Rossiya bilan temir yo'l orqali bog'lanishidan mustamlakachilar xivaliklardan ham ko'proq manfaatdor edilar. Chunki temir yo'l yo'qligi sabab Rossiya ishbiarmonlari sanoat mollari bozori hisoblanmish va xom ashyo manbai bo'lmish Xorazmdek boy o'lkani hali to'liq o'zlashtirmagan edilar. Xorazmga temir yo'lining keltirilishi uning xom ashyosini tashib ketish bilan birga mustamlakachilar uchun uni ruslashtirilgan o'lkaga aylantirish uchun ham zarur edi. Bu to'g'rida Amudaryo bo'limi boshlig'i Kolosovskiy «Temir yo'l bilan Xivaga haqiqiy rus kishilari keladi, ular Xivadan xonlikda asrlar davomida yig'ilib qolgan tabiiy boyliklarni olib ketadilar, Rossiya ta'sirini butunlay mustahkamlaydilar» [1, b. 103], deb yozadi. Chor hukumati 1899 yildayok Xorazm orqali Chorjo'y-Aleksandrov-Gay temir yo'lini qurish masalasini ko'rib chiqib, bu to'g'rida 1916-yilda bir qarorga kelgan bo'lsa ham, har xil sabablarga ko'ra u bu davrda amalga oshmasdan qoldi.

Orol dengizi, Amudaryo orqali paroxod harakatining ochilishi bilan Rossiya tovarlarining keltirilishi yildan- yilga orta bordi. Masalan, 1897-yilda Rossiyadan Xivaga umumiy iymati 7,5 mln. rubllik 230 ming pud tovar keltirilgan bo'lsa, 1911-1912 yillarda umumiy qiymati 18,6 mln. rubllik 2,2 mln. pud miqdorida tovar keltirilgan. Shu yillarda Xivadan Rossiyaga olib ketilgan tovarlar miqdori ham orta bordi, ya'ni 1897-yilda Xivadan 3,9 mln. rubllik 482 ming pud tovar olib ketilgan bo'lsa, 1911-1912 yillarda 14,8 mln. rubllik 1,5 mln. pud miqdoridagi tovar olib ketilgan [4, b. 29]. Olib ketilgan tovarlarning asosini paxta va beda urug'i egallaydi. Masalan, xonlikdan Rossiyaga 1899 -yilda 150 ming pud, 1900-yilda 320 ming pud, 1905-yilda 450 ming pud, 1910-yilda 600 ming pud, 1911-yilda 680 ming pud, 1912-yilda 700 ming pud paxta yuborilgan. Faqat 1915-1916 yillar mavsumida Xivadan Rossiyaga 2 mln. pud paxta olib ketilgan. Paxta bilan bir qatorda xonlikda yetishtiriladigan beda urug'i ham jahonga mashhur bo'lib, 1912- 1913 yillarda Rossiya, Germaniya, Amerika Qo'shma Shtatlariga 250-300 ming pud, 1914-yilda 400 ming pud chiqarilgan [3, b. 165]. 1915-yilda Xivadan faqat Gamburgga yuborilgan beda urug'i 400 ming pudni tashkil qiladi. Amudaryo vohasida undirilgan beda urug'ining afzalligi uning yaxshi unib chiqishida edi. Shunday qilib, Xiva xonligi asta-sekin xalqaro tovar muomalasi girdobiga tortila bordi [5, b. 129].

Rossiyaning savdo-sanoat, transport firmalari Yangi Chorjo'y temir yo'l uzelinin barpo qilinishi va 1887- 1888 yillarda Amudaryoda paroxod qatnovining ochilishi bilan xivaliklarning Buxoro va Rossiya bilan iqtisodiy aloqalari yanada kuchaydi. Shu munosabat bilan Xorazm vohasida savdo-sanoat markazi hisoblangan va Amudaryoga yaqin joylashgan Yangi Urganch shahrining mavqei ortdi. Urganchda pochta- telegraf bo'limi, Rossiya-Osiyo banki bo'limi, «Katta Yaroslav manufakturasi» kompaniyasi paxta zavodlari joylashgan. Rossiyalik amaldorlar Xiva xonligining boshqa shaharlariga nisbatan o'zlarining mustamlakachilik siyosatini aynan Yangi Urganch orqali o'tkazar edilar. Xo'jayli, Qo'ng'iro't va Mang'it shaharlari o'zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq va ruslar orasida ayirboshlash savdosi markaziga aylandi [5, b. 130].

Amudaryo bo'limi boshlig'i Kolosovskiy «Temir yo'l bilan Xivaga haqiqiy rus kishilari keladi, ular Xivadan xonlikda asrlar davomida yig'ilib qolgan tabiiy boyliklarni olib ketadilar, Rossiya ta'sirini butunlay Urganch, Xiva, Xonqa, Qo'ng'iro't kabi shaharlarida o'zlarining ulgurji savdo omborlari va kontoralarini barpo qilib, ular orqali savdo ishlarini olib bordilar. 1912 yilda xonlikda Rossiyaning 33 ta yirik va 156 ta o'rta holdagi savdo firmalari vakillari ish olib bordilar. Ular Yangi Urganch, Gurlan, Xonqa, Toshhovuz va xonlikning boshqa

shaharlarida dehqonlardan paxta sotib oladigan punktlarni ham tashkil qildilar. Shu bilan Rossiya savdo-sanoat kapitali Xivaning qishloqlariga kadar kirib borib, qishloq mehnatkashlarini ham o'zlarining mustamlakachilik doirasiga qamrab oldi. Mustamlakachi savdogarlarning xonlikdan ko'proq foyda olishlarida XX asr boshidan Xivada faoliyat ko'rsatayotgan bir necha Rossiya banklarining agentlari, 1909 yilda Yangi Urganchda ish boshlagan Rossiya-Xitoy bankining bo'limi, 1915 yildan xonlikda ish yuritayotgan Sibir va Moskva savdo, shuningdek, savdogarlar banklari agentlari, o'sha yillarda Yangi Urganchda o'rnatilgan Rossiya-Osiyo banki bo'limi ularga kreditlar berib madadkor bo'ldilar. Rossiya banklari xizmatlaridan maxalliy boylar, savdogarlar, sanoatchilar, hatto xon va uning amaldorlari foydalanganlar. Rossiya-Osiyo bankining Yangi Urganchdagi bo'limi mahalliy boylardan 120 tasiga qarz bergan. Ular orasida Xivaning eng katta yer egalari bo'lmish Muhammad Murod devonbegi o'g'illari Husaynbek, Shixnazarboy, Omongaldi, og'a-ini Baqqolovlar, og'a-ini Madyarovlar, shuningdek, katta savdogar va sanoatchi og'a-ini Olloqulovlar, Xudayberganovlar va boshqalar bor edi [3, b. 150-159].

1916 yilda Xiva xonligida kichik korxonalarni hisobga olmaganda 36 ta paxta tozalash, 4 ta yog' va sovun ishlab chiqarish, 4 ta beda urug'ini tozalash, 4 ta teri va 11 ta g'isht zavodlari, shuningdek, 50 ta g'o'za yanchish va 2 ta ichak yuvish korxonalari mavjud edi. Albatta, ularning ko'pchiligi Rossiyaning «Katta Yaroslav Manufakturasi» kabi mashhur kompaniyalari tomonidan qurilgan edi. Mahalliy tijoratchilardan og'a-ini Baqqolovlar, Salimjonov, Avazboy Qurboniyozov, Samandarov, Aminov, Toshniyozov, Allaberganov, Olloqulov va boshqalar xam xonlikda o'z korxonalariga ega edilar. Ular ham boshka xivalik ishbiarmonlar kabi Rossiyaning xonlikdagi bank bo'limlaridan olgan katta kreditlari evaziga ish yuritdilar[5, b. 130].

Bu davrda Xiva xonligida savdo-sanoat endi yuzaga chiqayotgan bo'lib, jamiyatning asosini yerga yirik zamindorlar tomonidan egalik tashkil qiladi. Mamlakatning asosiy boyligi bo'lmish ekiladigan yerlarning ko'pchilik qismi, sug'orish kanallari, yoplar katta yer egalari va amaldorlar ixtiyorida bo'lib, mehnatkash fukarolar doimo muhtojlikda kun kechirardilar. [5, b. 130].

Xulosa. XIX asr Xiva xonligi Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishiga qaramay savdo-sotiq doimiy ravishda olib borildi. XIX asr oxirlariga kelib dastlabki temir yo'llari kirib keldi. Bundan dastlabki sanoat korxonalari, banklar tashkil topdi. Chet el korxonalaridan tashqari mahalliy boylar ham o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ya boshladi. Lekin, chet el maxsulotlarining kirib kelishi mahalliy hunarmandlarning kasod bo'lishiga sababchi bo'ldi. Bu boradagi o'zgarishlar turli xalq harakatlarining vujudga kelishiga turtki bo'ldi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston MDA, 2-I-fond, 1-ro'yxat, 314-ish.
2. O'zbekiston MDA. 125-I-fond, 1-ro'yxat, 56-ish
3. Sadikov A.S. Ekonomicheskoye svyazi Xivi s Rossiyey vo vtoroy polovine XIX nachale XX vv. T.: Nauka, 1965.
4. Nepesov G. Iz Istorii Xorezmskoy revolyutsii. 1920-1924 gg. Tashkent, 1962, C.29
5. Qo'shqonov O, Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar (XIX asr ikkinchi yarmi -XX asr birinchi choragi). "Abu Matbuot -konsalt" MCHJ. Toshkent-2007. B-388.
6. Raxmanova Y.M. Istoriya Xivi (traditsii i izmeneniya). XVI-nachalo XX veka). – Tashkent: Akademya, 2019.
7. Тухтаметов Т.Г. Россия и Хива в конце XIX – начало XX в. Москва: Наука, 1969.
8. Istoriya Xorezma. S drevneyshix vremen do nashix dney. Pod red. I.M. Muminova. Tashkent: "Fan", 1976.